

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

ISSUE 11

NOVEMBER


Journal of

RESEARCH

and

INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ



IMFAKTOR  
PAGES

2023

ISSN: 2181-4058  
DOI Journal 10.56017/2181-4058

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 11-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ  
ТОМ-I, НОМЕР-11

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS  
VOLUME-I, ISSUE-11

ТОШКЕНТ - 2023

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 11 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-11>

## Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

## Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

## Таҳририят аъзолари:

1. Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
2. Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
3. Якубжон Хатамович Юлдашов – қишлоқ хўжалик фанлари номзоди, профессор,
4. Камалова Дильфуза Энураровна – филология ф.б.ф.д (PhD)
5. Раззақов Шухрат Турсунович – техника фанлари номзоди, доцент
6. Чоршанбиев Шухрат Махматмуродович – техника ф.б.ф.д. (PhD), доцент
7. Нематов Эркинжон Ҳамроевич – техника ф.б.ф.д (PhD), доцент
8. Бобокалонов Одилшоҳ Остонович – филология ф.б.ф.д (PhD)
9. Абдуллаева Садокат Шоназаровна – техника ф.б.ф.д (PhD)
10. Шарипов Козимжон Комилжонович – техника ф.б.ф.д (PhD)
11. Норматов Ғайрат Алижанович – техника ф.б.ф.д (PhD)
12. Бозорова Гульмира Зайниддиновна – филология ф.б.ф.д (PhD)
13. Убайдуллаев Фарход Бахтияруллаевич – қишлоқ хўжалиги ф.б.ф.д (PhD)
14. Каримова Дилафрўз Ҳалимовна Филология – филология ф.б.ф.д (PhD)
15. Маҳмудова Муаттар Мақсатуллаевна – филология ф.б.ф.д (PhD)
16. Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна – филология фанлари доктори

“Тадқиқот ва инновациялар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни **№ 054912**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.1** “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: [www.imfaktor.uz/com](http://www.imfaktor.uz/com)

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

**RAIMOVA Hilola Ma'murjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti*

*tayanch doktoranti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10225532>

## IKKI ADABIY MUHITNING MUSHTARAK JIHLTLARI

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Qo'qon adabiy muhitining vujudga kelishi hamda ravnaq topishi haqida, shuningdek, uning asoschisi haqida fikrlar keltirib o'tilgan. Qo'qon adabiy muhitining Xorazm adabiy muhitga ta'siri, ushbu adabiy hodisaning o'ziga xos jihatlari haqida fikr bildirilgan. Har bir ijodkorning adabiy harakardagi o'rni bevosita keltirib o'tilgan. Ayol shoirlar ijodlariga bir muncha to'xtalib o'tilgan. Qo'qon hamda xorazm adabiy muhitining yutuqlariga biroz to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, Xorazm adabiy muhitining o'zbek adabiyoti rivojidadagi o'rni xususida so'z boradi. Bu muhitning homiysi sifatida madaniyat va san'atning rivojiga munosib hissa qo'shgan Feruzning o'rni alohida ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, Munis, Ogahiy kabi ustoz shoirlarning samarali mehnati ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** Qo'qon adabiy muhiti, Xorazm adabiy muhiti, tatabbu, tarixnavislik, adabiy ta'sir, aloqa, shoirlar sulolasi, g'azal, chiston, muvashshar, an'ana, devon, tazkira, g'azal, muxammas, ijodkor, zullisonaynlik, o'ziga xoslik.

## ОБЩИЕ АСПЕКТЫ ДВУХ ЛИТЕРАТУРНЫХ СРЕД

### АННОТАЦИЯ

В данной статье приводятся мнения о возникновении и развитии литературной среды Кокан, а также о ее основателе. Выражено влияние литературной среды Кокана на литературную среду Хорезма и особенности этого литературного явления. Прямо упоминается роль каждого творца в литературном движении. Немного было затронуто творчество женщин-поэтов, затронуты достижения литературной среды Коканда и Хорезма. Также обсуждается роль хорезмийской литературной среды в развитии узбекской литературы. Освещена роль Феруза, внесшего достойный вклад в развитие культуры и искусства как покровителя этой среды. Также подчеркивается эффективная работа таких мастеров-поэтов, как Мунис и Огахи.

**Ключевые слова:** Коканская литературная среда, Хорезмская литературная среда, тatabbu, историография, литературное влияние, общение, династия поэтов, газель, чистан, мувашшар, традиция, деван, тазкира, газель, мухаммас, творчество, творчество, оригинальность.

## COMMON ASPECTS OF TWO LITERARY ENVIRONMENTS

### ANNOTATION

In this article, opinions are given about the emergence and development of Ko'kan literary environment, as well as about its founder. The impact of the literary environment of Kokan on the literary environment of Khorezm and the specific aspects of this literary phenomenon are expressed. The role of each creator in the literary movement is directly mentioned. The works of female poets were touched upon a little. The achievements of the literary environment of Kokand and Khorezm were touched upon. Also, the role of Khorezm literary environment in the development of Uzbek literature is discussed. The role of Feruz, who made a worthy contribution to the development of culture and art as a patron of this environment, is highlighted. Also, the effective work of master poets such as Munis and Ogahi is emphasized.

**Key words:** Kokan literary environment, Khorezm literary environment, tatabbu, historiography, literary influence, communication, dynasty of poets, ghazal, chistan, muvashshar, tradition, devan, tazkira, ghazal, mukhammas, creativity, originality.

19-20-asrlar orasida bir qator adabiy muhitlar orasida o'zaro hamkorlik aloqalari yuqori bosqichga ko'tarilgan. Bu davr ijodkorlari asarlarida adabiy ta'sir masalasi yaqqol sezilib turadi. Bu holat Qo'qon va Xorazm adabiy muhiti vakillari ijodida ham ko'zga tashlanadi.

Qo'qon va Xorazm adabiy muhiti (19-asr boshidan to 20-asr boshlarigacha bo'lgan davr)ga alohida e'tibor qaratgan Abdurauf Fitrat quyidagilarni yozadi: "... lekin shuni aytish kerakki, Farg'onada o'sg'an adabiy hayot Xorazmniki kabi fayzli va keng bo'lmadi. Xorazmda qurilgan muhim asarlarni tarjima qilish, ahamiyatli tarixlar yozish harakati Farg'ona davrida yo'q kabi. Shunday bo'lsa ham Farg'ona shoirlarining Xorazm shoirlari ustida katta ta'sirlari bo'lganligini inkor etib bo'lmaydi, Farg'ona "Majmuat ush-shuaro" sig'a o'xshatib, Xorazmda ham bir "Majmuat ush -shuaro" tuzumi buni ko'rsatadir [1, B.59].

Garchi Qo'qon adabiy muhitida Fitrat ta'kidlaganidek, tarjima va tarixiy asarlar u qadar salmoqli yaratilmagan esada, lekin ushbu adabiy muhit olimlar e'tirofi bo'yicha Navoiy zamonidagi Hirot adabiy muhiti darajasiga ko'tarila olgan va "Ikkinchi oltin asr" deya ulug'langan. Zotan, Qo'qon adabiy muhiti alohida bir hodisa sifatida o'zbek adabiyotining dunyo miqyosidagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishi barchamizga ma'lum. Mazkur davr ijodkorlari o'zbek mumtoz adabiyotining betakror an'alarini davom ettirib, bir-biridan go'zal asarlar yaratganlar. Ushbu asarlarning aynan mana shunday yashovchan bo'lishida o'sha asriy an'analarga sodiqlikni sabab qilib ko'rsatishimiz mumkin. Chunki an'anaviylik badiiy adabiyotning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. An'analar asosida shakllangan Qo'qon adabiy muhiti 19-asrda eng katta va jo'shqin bir hodisa sifatida bo'y ko'rsatdi. Bu davrda xonlikni boshqargn Umarxon Amiriy yurtni boshqarish bilan cheklanmay madaniyat va adabiyotga homiylik qilgan, ijod olamida ham o'z o'rni va mayqeiga ega bo'lgan. Bugun biz faxrlanib tilga olayotganimiz Qo'qon adabiy muhitini shakllantirgan va rivojlantirgan.

Xorazm adabiy muhitining esa, eng yuksak pog'onaga ko'tarilgan davrini, hech shubhasiz, 19-asr tashkil etadi. Chunki, bu borada, mazkur davrda yashagan, ushbu muhitning yuzaga kelishi va rivojlanishining sababchisi bo'lgan ijodkor Shermuhammad Munisning xizmatlari beqiyosdir. Munis Xorazm adabiy muhitini boshlab bergan bo'lsa, Ogahiy uni davom ettirib, go'zal va mazmundor ohanglar bilan boyitgan.

Shubhasiz, Feruz ushbu muhitga homiylik qilgan. Feruzning bu sohadagi o'rnini yaqin vaqtlargacha hech kim tilga olmagan bo'lsada so'z naqqoshi Abdulla Qahhor 1962-yildayoq Feruzning mashhur lirik shoir, musiqashunos va hattot bo'lganligini qayd etgani holda, Amiriyga o'xshab, zamonasining ijodkorlarini o'z saroyiga yig'ganligini e'tirof etib ketgan. Demakki, Feruz Xorazm adabiy muhitining yirik vakili, asoschisi va homiysidir.

Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari Umarxondek hukmdor qo‘lida erkin ijod qilish bilan bir qatorda, uning homiyligi ostida ham bo‘lgan, shuningdek, Amiriydek ustozdan maslahatlar olib ijodlarini mukammallashtirganlar.

Amiriy boshchiligidagi Qo‘qon adabiy muhiti qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan,

1. Qo‘qon adabiy muhiti uch buyuk iste‘dod sohiblarining mashaqqatli mehnati evaziga bugun tillarda dostonidir. Ya‘ni, Amiriy, Nodira va Muhammad Alixon (Xon) dan iborat ijodkor oila bir-biridan go‘zal asarlar bilan ushbu muhit rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

2. Ushbu muhitda Uvaysiy, Nodira, Anbar Otin, Dilshodi Barno, Mahzuna kabi ayol shoirlalarning ham o‘ziga xos o‘rni borligi quvonarli hol. Chunki boshqa adabiy muhitlarda ayol ijodkorni topish mushkul.

3. Qo‘qon adabiy muhiti vakillari klassik adabiyotimizning asriy an‘analariga hamisha sodiq bo‘lishgan va ana shu an‘ana atrofida qalam tebratishgan.

4. Garchi Xorazm adabiy muhiti singari tarixnavislik va tazkirachilik ajv olmagan bo‘lsada, deyarli har bir ijodkor o‘zlari yaratgan asarlaridan devon tuzishga muvaffaq bo‘lganlar.

5. XIX asrning birinchi yarmida tatabbunavislik eng rivojlangan adabiy muhit Qo‘qonda bo‘lib, unga Qo‘qon xonlari, shoirlar Amiriy, undan keyin esa o‘g‘li Xon bevosita rahbarlik qilishgan. Masnu tatabbular ham u yerda kuchli edi. [2, B.117].

Amiriy va Xon Navoiy asarlariga bir-biridan go‘zal tatabbular qilgani holda o‘zlari adabiy muhitning Muqimiy, Furqat, Zavqiy singari iste‘dodli shoirlariga ta‘tabbu uchun zamin bo‘ladigan g‘azallar yaratganlar.

6. Ushbu adabiy muhitga o‘zi mamalakat hukmdori bo‘lsada, ilohiy ishq oldida, chin muhabbat oldida o‘zini qul sanaydigan, mashuqasini esa “shoh” ataydigan karami keng Amiriydek zot boshchilik qilgan:

*Husn shohisan, jono, bu hazing gadolarga,  
Ko‘z uchi bilan boqib, xayr ayla exson qil [3, B.218].*

7. Ushbu muhit rahnamosi Amiriyning adabiy merosi tasavvufiy mazmunning keng va chuqurligi, ilohiy ishq tarannumining ustuvorligi bilan ham e‘tiborni tortadi. Inchunin, kuchki tasavvufiy ta‘lim, mavjud an‘ana ta‘siri hamda tariqat va tasavvuf maktablarining faoliyat ko‘rsatganligi natijasida birgina Amiriy emas, balki o‘sha davrning boshqa shoirlari ijodida ham tasavvuf ta‘siri kuchli ekanligini ko‘rishimiz mumkin [4, B.394].

*Adamdin men qachon o‘z ixtiyorim birla kelmishmen,  
Jamoling jilvasi birla vujud izhori qilmishmen... [5, B.387].*

Amiriydan. Tasavvufiy mazmundagi she‘rlarga Gulhaniy ijodidan misol:

*Ko‘ngul ozurdadur dunyog‘a arzi ehtiyoj etmaz,  
Tariqat soliki mayli bu yo‘lda izdivoj etmaz.*

8. Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari o‘zlarining serqirra va sermazmun ijodlari bilan, noyob iqtidorlari bilan turkiy va forsiy tilda ham devon tartib berganliklari bu muhitning yana bir o‘ziga xosliklaridandir.

9. Qo‘qon adabiy muhiti vakillari, jumladan, Uvaysiy, she‘riy topishmoq “Chiston” janrini yuqori cho‘qqisiga olib chiqqanligi e‘tirofga loyiq. Ushbu janr ham aynan Qo‘qon adabiy muhitida o‘z taraqqiyotining aytishga arzigulik boshqichiga ko‘tarilgan.

10. O‘z she‘rlari bilan o‘zbek shoirlarining adabiyot olamiga zafarli yurishlarini boshlab bergan Uvaysiy hatto doston ham yaratganki, bu jihatdan ham Qo‘qon adabiy muhiti boshqa adabiy muhitlardan ajralib turadi.

11. Qo‘qon adabiy muhitining yana bir xarakterli jihati shundaki, bu davr ijodkorlari orasida hajviy yo‘nalishda qalam tebratganlari ham mavjud. Jumladan, Gulhaniy, Muqimiy, Zavqiy, Muhyi kabi ijodkorlar bu yo‘nalishning rivoji uchun katta ta‘sir ko‘rsatganlar.

12. Malikai davron Nodirabegim tomonidan yuqoriga olib chiqilgan muvashshar uslubi ham o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida juda yorqin iz qoldirgan. “Firoqnoma” muashshari buning isbotidir.

13. Bu davr ijodkorlari azaliy an‘analarni chuqur o‘zlashtirib yangicha ruh va uslub bilan boyitgan holda o‘zlari Muhammad Rahimxon Feruzdan tortib, Munis, Ogahiy, Komil, Tabibiy, Avaz O‘tar kabi Xorazm adabiy muhiti vakillari ijodiga sezilarli darajada ta‘sir o‘tkazganlar.

14. XIX asrda Qo‘qon xonligida erkinlik va haqiqat tuyg‘usi jonlanib, to‘g‘rilik va jur‘at mayli kuchaygan noyob iste‘dod sohiblari istiqomat qilganki, Hoziq, Gulhaniy, Maxmur, Nodira singari ijodkorlar aynan shu xususiyatlari sabab xalq orasida shuhrat topganlar. Bular qatorida hatto zohidga ham ko‘rsatma berishga qodir, tasavvuf va tariqat sirlarini chuqur o‘zlashtirgan [6, 17] Uvaysiydek iste‘dod sohiblarining ham borligi quvonarli holatdir:

*Istasang yor ila o‘zluk, zohido, ko‘p yig‘lag‘il,  
O‘zlugung g‘arq etmog‘a Jayhun kerakmazmu sango.*

15. Bu muhitning eng betakror va o‘ziga xos jihati Nodirai davrondek malikaning shoiralarga boshchilik qilishi, turmush o‘rtog‘ining yoniga kirib ijod ahliga homiylik qilishi boshqa hech bir adabiy muhitda uchramaydigan hodisadir.

16. Mamlakat hukmdorlari Amiriy va Muhammadalixonga sultonlik bobida ona va rafiqqa sifatida, ijod onlarida esa maslahat berguvchi ustoz sifatida Nodiraning bo‘y ko‘rsatishi bu ikki hukmdorning naqadar omadli ekanligini ifodalaydi. Chunonchi, Nodira bir g‘azalida shohlik xususida fikr yuritib, xalqning ahvoli hamisha hukmdorning diqqat markazida turishi kerakligi, agar shoh fuqaro holiga boqmasa uning hashamat-u saltanati, shon-u shuxratining hech kimga keragi yo‘q deya ta‘kidlaydi, bu orqali o‘g‘li va turmush o‘rtog‘iga nasihat qilib o‘tadi:

*Fuqaro holiga boqmasa har shoh, anga  
Hashmat-u, saltanat-u, raf‘at-u, shon, barcha abas.  
Shoh uldurki, raiyyatga tarahhum qilsa,  
Yo‘q esa, qoidai amnu amon, barcha abas.*

Adabiy muhit – bu ijodiy muhit. Ma‘lum joyda yashab ijod qilgan yirik shoir va adiblar ta‘sirida yuzaga keladi. Adabiy muhitning vujudga kelishi, albatta, ijodkorlar faoliyati, ular yaratgan ijodiy maktablar bilan bog‘liqdir. Shunday maktablardan biri aynan Xorazm adabiy maktabidir. Feruz nomi bilan bog‘liq adabiy muhit qator o‘ziga xosliklarga ega. Unda, bir tomondan, ko‘p asrlik adabiy an‘analar davom etib, ustuvorlik qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy yangicha qarashlar, ma‘rifatparvarlik g‘oyalari tobora kengayib borayotgan edi.

Badiiy ijodda she‘riyat salmoqli o‘ringa ega bo‘lib, uning mazmunini ishqiy-axloqiy motivlar tashkil etardi. Shu bilan birga, adabiy jarayondagi jonlanish an‘anaviy mavzularning yanada boyishida, janrlarning shakliy rang-baranglashuvi, umuman, badiiy ijod ijtimoiy-estetik ahamiyatining oshishida ko‘rinadi. Tabiiyki, adabiy muhitning harakatlantiruvchi kuchi ijodkorlardir. Bu jihatdan, Feruz muhitining uyushganlik xarakterini alohida ta‘kidlash kerak. Muhimi shundaki, bu muhitdagi ellikka yaqin ijodkorlar turli ijtimoiy toifa, kasb va millatga mansubligidan qat‘i nazar muayyan darajada badiiy iqtidorga ega bo‘lishgan, turli janrlarda asarlar yaratishgan.

Shu o'ringa Urgancha davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori D.G'oyipovning "Ogahiyning badiiy mahorati" nomli doktorlik dissertatsiyada keltirilgan ushbu fikrlarni yodga olish g'oyat o'rinlidir: "Ijodkor mahorati ikki adabiy –estetik omilga tayanadi:

1) iste'dod;

2) buyuk salafilar ijodiy an'analarni chuqur o'rganish asnosida ularni yangilay bilish salohiyati." [7, B.15].

Shunday iste'dod va an'analarni yangilagan holda Xorazm maktabi ijodkorlari takrorlanmas asarlar yaratgan. Ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

1. Feruz shajarasiga mansub ijodkorlar (Murodiy, Komyob, Farrux, Sultoniy, Sodiq, Sa'diy, Oqil, Bayoniy va boshqalar);

2. Feruz tomonidan bevosita saroy xizmatiga jalb etilgan ijodkorlar (Tabibiy, Komil, Doiy, Devoniy, Mirzo, Habibiy, Xodim va boshqalar);

3. Rasmiy ravishda saroy xizmatida bo'lmas-da, Feruz nazarida bo'lgan va adabiy muhitda sezilarli iz qoldirgan ijodkorlar (Avaz, Niyoziy, Mutrib, Faqiriy, So'fi va boshqalar). [8, B.13].

Mazkur ijodkorlar bir diyorning farzandi sifatida an'anviylik harakteriga ega bo'lgan muhabbat mavzusi bilan bir qatorda vatanparvarlik, sadoqat, ilm-u ma'rifat, tabiat tasviri, shuningdek, pand-nasihati mavzularida qalam tebratishgan.

XX asr boshidagi Xorazm adabiy muhitining asosiy xususiyatlari davrdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, badiiy ijodda an'ana va yangilanishning uyg'unlashuvi kabi omillar bilan bog'liqdir. Bu xususiyatlarni, asosan, quyidagilarda ko'ramiz:

a) adabiy muhit boy va tarixan uzoq adabiy tajribalarga suyangan holda ularning yangi asrdagi davomi sifatida shakllandi va o'zbek mumtoz adabiyotining so'ngi, yangi davr adabiyotining esa boshlanish bosqichi bo'ldi;

b) adabiy muhit vakillarining aksariyati bevosita, bir qismi esa saroy bilan bilvosita bog'langan bo'lsa ham, Feruz shoh sifatida ularning umumiy homiysi va muhit tashkilotchisi, shoir sifatida ijodkor hamkori edi;

d) ijodkorlarning asosiy adabiy mahsuli bo'lgan lirik she'riyatdan tashqari, qator epik, tarjima va tarixiy asarlarning yaratilgani adabiy muhitning yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

e) adabiy muhitga xos jihatlardan yana biri lirik janrlar rang-barangligi. Bu sohada yigirmaga yaqin janr va shakllarda ijod etgan ustoz Ogahiy an'anasi davom ettirildi va shoirlarning ayrimlari o'n to'rtta janrda ijod etishdi. Tabiiyki, bular orasida g'azal va muxammaslar asosiy o'rin tutadi;

f) adabiy muhit namoyandalarining ijodiy takomilida Navoiy va Fuzuliy dahosidan bahramandlik, shuningdek, zullisonaynlik an'anasi ham muhim omil bo'ldi. Ustozlarga izdoshlik asosan ijodiylik kasb etdi, o'zbek va fors tillarida ijod qilish esa har bir shoirga xos xususiyat edi;

g) muhim jihatlardan yana biri shundaki, shoirlar ijodi ko'p qirrali edi. Ular adabiy ijoddan tashqari, xattot, musiqashunos, tarjimon, tarixnavis ham bo'lganlari bois bu ijod qorishiq xarakterda edi;

i) Xorazm adabiy muhitiga xos xususiyatlardan yana biri, dastlabki muhit yuzaga kelgan davrlarda bo'lmas-da biroq keyinroq ijodkorlar orasida Xolamjon xalfa kabi ayol shoirlarimiz ham bo'y ko'rsatadiki, bu jarayon, shubhasiz, Qo'qon adabiy muhitining ta'siri deyish mumkin.

j) adabiy muhitning o'ziga xosligini ifodalovchi asosiy xususiyatlardan yana biri badiiy asarlarning kitobat – devon, bayoz, tazkira, majmua shakliga keltirilishi va targ'ib qilinishida namoyon bo'ladi. Xususan, tazkiralarda o'sha davr ijodkorlari, jumladan, "Haft shuaro"ga kirgan shahzoda shoirlar biografiyasi va ijodiy faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Umuman, bu xususiyatlar madaniyat va san`at sohasidagi rivojlanishga, adabiy jarayonning qizg`in xarakter kasb etishiga, ijodkorlar faolligining oshishiga, adabiy janrlar, xususan, she`riyatning mavzu va g`oyaviy ko`lamdorligiga, an`anaviylikning yangicha shakl va mazmun bilan boyishiga hamda kitobat ishlarining keng yo`lga qo`yilishiga imkon yaratdi. Zero, bu davrda Feruz saroyida va undan tashqarida yashab ijod etgan shoirlar tomonidan ko`plab asarlar yaratilgani, deyarli har shoirning bir yoxud ikkitadan devon tuzgani ularni ommaga yetkazish, targ`ib qilish, kitobxonlikni kengaytirishni taqozo qilardi.

Natijada, shaxsan Feruz tashabbusi va homiyligi bilan badiiy va adabiy-tarixiy asarlarni qo`lyozmadan tashqari, bosma usulda ko`paytirish maqsadida XIX asrning saksoninchi yillaridan boshlab litografiyadan foydalanish joriy etildi. Darhaqiqat, toshbosmaning yo`lga qo`yilishi adabiy muhitdagi jonlanishning kuchayishiga, ijodkorlar rag`batini oshirishga va kitob holidayi manbalar sonining tez ko`payishiga imkon berdi. Turli bayoz, majmua, tazkiralalar tuzishning nisbatan tezlashuvida ushbu omillar sezilarli rol o`ynadi. Ammo bu hol qo`lyozma amaliyotini butunlay siqib chiqarolmadi. Xorazm adabiy muhitida muhim o`rin egallagan bayozlar Sharq adabiyotiga xos bayozchilik an`anasining asosiy xususiyatlarini aks ettirish bilan birga, muayyan o`ziga xoslikka ham ega.

Bu hol bayozlarning janriy va mavzu jihatdan tabaqalashuvi hamda zullisonaynligida ko`rinadi. Jumladan, Feruz davrida tuzilgan “Bayozi majmuai ash`or” va “Bayozi ash`or” turli lirik janrlardagi she`rlardan tuzilgan bo`lib, ishq mavzusini tarannum etsa, “Bayozi musaddasot”, “Bayozi muxammasot”lar faqat musammat shakllari, “Bayozi ruboiyot” esa birgina ruboiy janri namunalaridan iborat bo`lib, ham ishqiy, ham ijtimoiy-falsafiy mavzularga bag`ishlanganligi bilan karakterlidir [9, B.187].

Xorazm adabiy muhiti xususidagi qimmatli ma`lumotlarning muayyan qismi tazkiralarda mujassam bo`lib, u Sharq mumtoz adabiyotshunosligida salmoqli o`ringa egadir. Tazkira, odatda, muayyan tarixiy davrga mansub adabiy-tanqidiy qarashlarni, bir yoxud turli davrlar shoirlar hayoti va ijodini yorituvchi an`anaviy janr sifatida o`zbek adabiyotshunosligida ham mavjud edi. Tom ma`noda o`zbek tilidagi ilk tazkira Navoiyning “Majolis un-nafois”idan boshlangan tazkirachilik mezonlari tamoyillari keyingi davrlar uchun asosiy yo`l-yo`riq bo`ldi. Bu asarda tazkirada ikki qirra – matn (she`riy parchalar) va ijodkor hayoti hamda asarlari haqidagi ma`lumotlar talqini mavjudligi tazkiraning tub xususiyati ekanini ko`rsatdi va Xorazm tazkirachiligi uchun ham ilhom va rag`bat manbai bo`lib xizmat qilgan.

Ushbu fikrlar shunday xulosa beradiki, Amiriy asos solgan Qo`qon adabiy muhiti vakillari hamda Feruz rahnamoligidagi Xorazm adabiy muhitining serqirra ijodkorlari badiiy adabiyotning barcha janrlarida, turli yo`nalishlarda: she`riyat, hajviyot, padn-nasihah, ilmi bade`, tazkira, an`anaga sodiqlik, shuningdek, badiiy talqin borasida o`z yo`nalish va uslublarini yaratib o`zbek adabiyotining salmoqli qismini zabt etgani bilan karakterlidir.

Ushbu muhit vakillari she`riyatning g`azal, tuyuq, ruboiy, mustazod janrlarida; musammatning turlarida, jumladan, murabba`, muxammas, musaddas hamda muashshar shakllarida mahorat bilan qalam tebratib, ilohiy ishq, Vatanga sadoqat, do`stlik, to`g`rilik va halollik mavzularida ijod qilganlar. Qalb iztiroblarini, ko`ngil kechinmalarini mahorat bilan qalam ixtiyoriga topshirganlar. Shu tariqa bir-biridan go`zal va betakror san`at asarlarini biz avlodga meros qilib qoldirganlar. Bu nodir asarlarning hali xalqqa ma`lum bo`lmagani qancha...

## IQTIBOSLAR/SNOSKI/REFERENCES

1. Abdurauf Fitrat. XVI asrdan soʻngra oʻzbek adabiyotiga bir qarash. Tanlanga asarlar. II jild. - T.: Maʼnaviyat, 2000.
2. Fayzullayev Baxtiyor. Qoʻqon adabiy muhitida tatabbunavislik. “Qoʻqon adabiy muhiti va uchinchi renessans” nomli xalqaro ilmiy-amaliy ajuman materiallari. “Fargʻona nashriyoti” 2022. 116-bet.
3. Amiriy . Devon. I jild. Oʻzbekcha sheʼrlar. Toshkent. “Tamaddun”nashriyoti. 2017. 218-bet
4. Ochilov Ergash. Taʼbi nozik, zehni salim shoir. “Barhayot siymolar”. – Toshkent: “Oʻzbekiston”,2012, 394-bet.
5. Amiriy . Devon. I jild. Oʻzbekcha sheʼrlar. Toshkent. “Tamaddun”nashriyoti. 2017. 387-bet
6. Ibrihim Haqqul. Qoʻqon adabiy muhiti vakillari ijodini oʻrganish muammolari. “Qoʻqon adabiy muhiti va uchinchi renessans” nomli xalqaro ilmiy-amaliy ajuman materiallari. “Fargʻona nashriyoti” 2022. 17-bet.
7. Gʻoyipov D. Ogahiyning badiiy mahorati. Filologiya fanlari doktori (DSc)ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2021
8. Qobulov N. Xorazm adabiy muhiti (Eng qadimgi davrlardan boshlab1990-yilgacha) Oʻqituvchilar uchun qoʻllanma. II kitob. Xorazm viloyat matbuot boshqarmasining “Xorazm tahririyati” nashr boʻlimi. Urganch – 1998.
9. Xajiyeva I. XX asr boshlarida xorazm adabiy muhiti va badiiy ijod qirralarini talabalarga taʼlim texnologiyalari vositasida oʻrgatish (“Haft shuaro” misolida) Multidisciplinary Scientific Journal – 2022.

ISSN: 2181-4058  
DOI Journal 10.56017/2181-4058

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 11-СОҢ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ  
ТОМ-I, НОМЕР-11

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS  
VOLUME-I, ISSUE-11

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)